



Axborot xabarnomamizning o'n oltinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n beshinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgandir.

Ushbu son 2024-yilning iyul-sentabr oylari oralig'ida O'zbekistonga ko'rsatilgan texnik yordamga bag'ishlangan. Chorak davomida bosh muzokarachi, Yevropa Ittifoqi va XSM hamkorligida donor tashkilotlarning muvofiqlashtiruvchi yig'ilishi tashkil etildi. Unda O'zbekistonga ko'rsatiladigan texnik ko'makning to'rtta asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Birinchisi, kelajakda texnik yordamni davom ettiruvchi savdo siyosati bo'yicha tahliliy tadqiqot markazini yaratishdir. Loyiha chorak davomida ushbu yo'nalish bo'yicha "yo'lxaritasi"ni ishlab chiqishga yordam berdi. Boshqa ustuvor yo'nalishlar sifatida savdodagihimoya choralari, sanitariya va fitosanitariya masalalari (SFS) va savdodagi texnik to'siqlar (STT) sohalarida JST talablariga muvofiqlashtirish uchun institutsional salohiyatni mustahkamlash kabilar aniqlab olindi. Loyiha ushbu yo'nalishlarda ham faol yordam ko'rsatmoqda va ularni ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishga tayyor.

Chorak davomida loyiha, shuningdek, Berndagi Jahon savdo instituti (WTI) yozgi akademiyasida to'rtta hukumat mutasaddilariga o'z faoliyatiga tegishli kurslarda ishtirok etish imkonini berdi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

Mamlakat [JSTga](#) a'zo bo'lganida, uning mavjud savdo-iqtisodiy qonunlari va siyosati a'zolikshartlari va qoidalari bo'yicha muzokaralar olib borish uchun asos bo'ladi. Ushbu chorakda Ishchi guruhi (IG)ning hisoboti loyihasi e'lon qilinishi bilan muhim yutuq qayd etildi. Hisobot O'zbekistonning JST muzokaralari jarayonidagi bozorga kirish bo'yicha majburiyatlarini majburiy qilib qo'yadigan tovarlar va xizmatlar bo'yicha bozorga kirish takliflari bilan birga yakuniy a'zolik bo'yicha hujjatlar to'plamining bir qismini tashkil etadi. Loyiha doimiy texnik ko'mak ko'rsatishi natijasida a'zolik bo'yicha muzokaralarni ilgari surishga hissa qo'shib, JST Kotibiyati uchun Ishchi guruhining hisoboti loyihasini ishlab chiqish imkonini berdi. Hisobot IGning 2024-yil oxirigacha bo'lib o'tadigan navbatdagi yig'ilishida muhokama qilinadi.

Loyiha, shuningdek, kelgusidagi muzokaralarni qo'llab-quvvatlash uchun keng ko'lamli reja bo'yicha tavsiyalar berdi. Loyiha JSTga a'zo bo'lish va savdo siyosati bo'yicha istiqbolli tahliliy tadqiqot markazini qanday tashkil etish va uning salohiyatini oshirish bo'yicha o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Ushbu savdo markazi, shuningdek, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lgandan so'ng JST majburiyatlarini bajarishi va qo'llab-quvvatlashiga hissa qo'shishi mumkin.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qo'shilayotgan mamlakatning milliy qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirishdir. Shuning uchun loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning ushbu talabini qo'llab-quvvatlash uchun o'z qonunlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

O'tgan chorakda O'zbekiston savdodagi himoya choralari bo'yicha vakolatli organi tashkilot bo'yicha ko'mak so'radi. Loyiha antidemping va kompensatsiya bo'jlarini qo'llash hamdasavdodagi himoya choralari kabi asosiy qonun hujjatlarini ishlab chiqish orqali O'zbekiston uchun savdo huquqiy vositalari rejimiga asos solishga yordam berdi.

Savdodagi himoyachoralari bo'yicha vakolatli organ mahalliy sanoat tarmoqlarining dumping yokisubsidiyalangan tovarlar bilan raqobat kabi adolatsiz savdo amaliyotlaridan samaralihimoyalanganligini ta'minlash uchun rejimning institutsional ustuni bo'ladi.

Shuningdek, loyihaga JSTga a'zo bo'lishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ehtimoliy ta'sirinibaholash bo'yicha so'rov kelib tushdi. Tadqiqotning maqsadi import tariflari o'zgarishiningsavdo oqimlariga va alohida mahsulotlarga ta'sirini baholashdan iborat. Shu bilan birqatorda, tadqiqotda JSTga a'zolikdan O'zbekiston eksport salohiyati ham mahsulotlar, ham bozorlar kesimida baholanadi.

Bu O'zbekistonning savdo holati haqida aniqroq ma'lumotberib, muzokarachilar guruhi uchun bozorga kirish majburiyatlari ro'yxatini shakllantirishdayo'nalish beradi. Tadqiqot iyul oyida boshlangan va 2024-yil noyabr-dekabr oylaridayakunlanishi kutilmoqda.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Hukumat mutasaddilarini JST bitimlarini joriy etishning texnik jihatlarini amalga oshirishuchun zarur bo'lgan tajriba bilan ta'minlash maqsadida, loyiha hukumat vakillarining JST talablariga oid ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'tgan chorakda Savdo siyosati bo'yicha o'quv dasturi, Toshkentda JIDU hamda "JST Kafedralari dasturi" (WTO Chairs Programme) bilan hamkorlikda bir qator o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. 17-18-iyul kunlari JSTning Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimi (TRIPS) murakkabliklarini qamrab olgan kursda [intellektual mulkhaqidagi](#) bilimlar mustahkamlandi. 21-avgust kuni JST Bojxona bahosi bo'yicha qoidalari, Kelib chiqish qoidalari va Savdo-sotiqni soddalashtirish to'g'risidagi bitimlar [bojxona amaliyoti](#) bo'yicha kurs taqdim etildi.

Batafsil Ma'lumot



“Bu kurslar orqali JST bitimlarini tushungan holda siyosat ishlab chiqish va savdo muzokaralariga hissa qo’shish qobiliyatimni oshirdi.” - Xushnuda Raupova, O’zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi bosh mutaxassisi.

“Biz hamkorlarimiz tomonidan shu kabi o’quv seminarlarining ko’proq tashkil etilishini so’raymiz.” - Sanjar Norquvatov, Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti bo’lim boshlig’i.

2024-yil yanvar oyida asosiy savdo yo’nalishlari bo’yicha institutsional tajribani jadal rivojlantirish uchun ishga tushirilgan 11 kurslik o’quv dasturi doirasida yana ikkita kurs taqdim etilishi rejalashtirilgan. Ushbu dastur O’zbekistonning JSTga a’zo bo’lish muzokara jamoasi uchun mo’ljallangan bo’lsada, mutasaddilar va JIDU talabalari ham seminarlardan manfaat ko’rmoqda.

Uchinchi chorakda, shuningdek, 2024-yil iyul oyida Shveysariyadagi Jahon savdo institutining Yozgi akademiyasida maxsus kurslarda to’rt nafar hukumat mutasaddilari (ikki nafari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligidan va ikkitasi Adliya vazirligidan) ishtirok etdi.

Loyiha mutasaddilarining “Xalqaro investitsiyalar huquqi va barqaror rivojlanish” va “Transchegaraviy savdo va investitsiyalar bo’yicha xalqaro shartnomalar” kurslarida o’qish imkoniyatini yaratib berdi. [Ishtirokchilarning fikr-mulohazalari](#) juda ijobiy bo’ldi. Ularning ba’zi fikrlarini quyida ko’rishingiz mumkin:



"Dastur menga JST faoliyati haqida batafsil ma'lumot berdi va Shveysariyalik ekspertlar bilan muloqot [imkoniyatlari] yaratdi," - deydi Ziyodullo Keldibekov, Raqobatni rivojlantirish va Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining yetakchi mutaxassisi.

"Kurs muhim strategiyani ishlab chiqish uchun juda foydali bo'ldi va umuman [JST] muzokaralar jarayonini tushinishda sezilarli darajada yordam berdi." – Xushnuda Raupova, O'zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi bosh mutaxassisi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'rsiqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Ushbu murakkab sohalarda xalqaro qoidalarni boshqarishning texnik jihatlarini amalga oshirish uchun O'zbekistonning STT va SFS bilan bog'liq institutlarini yaratishga yordam berish harakatlari davom ettirildi.

Loyiha Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasini mamlakatning hayvonlar salomatligi to'g'risidagi qonunini Butunjahon hayvonlar salomatligini muhofaza qilish tashkilotining (WOAH) Quruqlikdagi hayvonlar sog'lig'i kodeksiga muvofiqlashtirish uchun qayta ko'rib chiqishda qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Salohiyatni oshirish nuqtayi nazaridan, chorak davomida mutaxassislar uchun ikkita oflayn va onlayn tarzda treninglar o'tkazildi.

2024-yil 1-3-iyul kunlari veterinariya mutaxassisleri, operatorlar va mutasaddilar maqbul gigiyena va ishlab chiqarish amaliyotlarini (GHP va GMP) qanday qo'llash va kushxonalarda xavflarni tahlil qilish va kritik nazorat nuqtasini (HACCP) qanday boshqarishni o'rgandilar. Ushbu seminar, eng muhimi, xususiy sektor vakillarining ishtirokini hamta'minladi. 4-5-iyul kunlari hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va hayvonlar salomatligi uchun veterinar kuzatish asoslari, oziq-ovqat xavfsizligi va xalqaro savdoga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Loyiha, shuningdek, 23-27-sentyabr kunlari Latviyaning Riga shahrida bo'lib o'tgan o'quv-mashg'ulotlarida ishtirok etish uchun tegishli SFS organlari va Bojxona qo'mitasining to'rt nafar mutasaddilarining ishtirokini ta'minladi. Mashg'ulotlar Latviyaning Oziq-ovqat va veterinariya xizmati tomonidan Latviya va umuman Yevropa ittifoqida SFS choralari qo'llash va oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha o'tkazildi.

Yuqorida aytib o'tilgan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi doirasida donor tashkilotlar muvofiqlashtiruvchi yig'ilishida qayd etilganidek, SFS va STT sohalarida mutaxassislar salohiyatini oshirish kelajakda qo'llab-quvvatlanishi zarur bo'lgan to'rtta ustuvor yo'nalishdan biri hisoblanadi. Shu sababli, loyiha kelgusida ushbu sohalarda texnik salohiyatni oshirishga qaratiladi.

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri ham xususiy sektor, ham fuqarolik jamiyati o'rtasida JSTga a'zo bo'lish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvning istiqboldagi afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishdan iborat. O'tgan yil davomida o'tkazilgan o'quv seminarlaridan so'ng, loyiha benefitsiarning qo'shimcha shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etish bo'yicha keyingi so'rovlarini kutmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)